

Yashil

IQTISODIYOT
TARAQQIYOT
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4

No 2



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 598 sahifa.

E'lion qilishga 2024-yil 29-fevralda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxanova Guinora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Ilm-fanga baxshida umr	8
Baxtiyor Islamov	
Kichik biznesni rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotni keng tatbiq qilishning ahamiyati	10
Gulnora Abdurahmonova Kalandarovna, Sanjar Baxodirovich G'oipnazarov	
Brand Capital as a Determinant of Institutional Prestige and Student Choice in the Higher Education System ...	16
Zufarova Nozima Gulamiddinovna	
Inson va atrof-muhit dialektikasi: nomutanosiblik ko'rsatkichlari va ekologik muammolar	24
Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich, Maxmudov Nosir Maxmudovich	
Yashil budgetlashtirish va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari	30
Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi	
Iqtisodiyotda ta'lim va fan integratsiyasining asosiy yo'nalishlari	35
Yormatov Ilmidin Toshmatovich	
Transport vositalari va yo'llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir	39
Agzamov Shaxboz Akmalovich	
Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish	44
A. X. Salamov	
Biznes-reja baliqchilik xo'jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida	48
Dosmuratova Shaxista Kengashovna	
Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog'liqligi	55
Axmediyeva Aliya Toxtarova	
Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari	63
Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich	
Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari.....	67
Shamsiyev Nodir Muratovich	
Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari.....	72
Shagazatov Oybek bahodirovich	
Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo'nalishlari	76
Davlatov Sanjar Abdimannonovich	
Ijtimoiy rivojlanish xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari	80
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
Korxonalar innovatsion faoliyatida raqamli transformatsiyaning muhim yo'nalishlari	84
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida)	89
Yoriyeva Farangiz Murodillayevna	
Innovatsion tadbirkorlik muhitini kompleks baholashda xalqaro tashkilotlar tajribasi.....	94
Nazarova Umida Avazovna	
Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari	98
Mirzaxodjayev Alisher Botirovich	
Globallashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirish	103
Mirzayev Musurmon Umidullayevich	
Surxondardon viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni va ahamiyati	108
Fayziyeva Aziza Azamat qizi	
Ta'lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili	113
Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich	
Ta'minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish	119
Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi	
Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari	123
Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich	
Razvitiye cifrovoy tansformatsii bankovskogo sektora Respublikи Uzbekistan	129
Abdurahmanova Matluba Mahamadaminovna	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ



Asosiy fondlarni hisoblash va baholash usullarini takomillashtirish istiqbollari.....	135
Rixsimbayev Odiljon Qobiljonovich	
Marketingda tovar harakati tizimini optimallashtirish va modellashtirish.....	141
Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Kamola Abdujabborovna Pardayeva	
Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari:	
Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili.....	148
Sultonboeva Munira bahodirovna	
Soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati: ilmiy-nazariy qarashlar.....	154
Axrorov Zarif Oripovich, Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li	
Vzaimosvazъь инвестиционной стратегии с оценкой эффективности инвестиционного проекта	159
С. С. Алиева, А. Назаров	
Erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish.....	167
Sheraliyeva Saida Azatovna	
Xizmat safari xarajatlari hisobining huquqiy asoslari	170
Ergashev Sarvar Xudoynazarovich	
Инклюзивное образование и его особенности.....	175
Зайнутдинова Умидा Джалоловна	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	179
Qurbanov Muxiddin Abdullayevich	
Mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni qisqartirish yo'llari.....	184
Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li	
Mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari, baholanadigan qiymat turlari.....	188
Izbosarov Boburjon Bahriiddinovich, Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li	
O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining zamonaviy transformatsiyasi.....	193
G. Adilova	
Biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini o'yinlar nazariyasi usuli bilan baholash.....	197
Mardiiev Nurali	
Yengil sanoatda "lean production" konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlari.....	203
Yaxyayeva Inobat Karimovna	
Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili	207
Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li	
Ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari	213
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	221
Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna	
O'zbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliyasi instrumentlarini jalb etishdagi joriy tendensiyalar	226
Eshimov Alisher Dusmurodovich	
Tashqi savdoda notarif usullarni qo'llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi)	234
Norqobilov Akobir Iso o'g'li	
Reklama xizmatlari va uning subyektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari.....	240
Rabbimov Elbek Abdulloyevich	
Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sog'lioni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari	245
Imonqulov Nuriddin Qo'shmon o'g'li	
Tijorat banklari biznes ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	250
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
Majburiy tibbiy sug'urtaning vujudga kelishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	256
Kenjayev Soxib Sayfiyevich	
O'zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish orqali budget-soliq siyosati samaradorligini yanada oshirish.....	260
Yuldasheva Shaxnoza Xojiakbar qizi	
Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida derivativlar bozorining roli	266
Shokirov Mirkamol Mirolim o'g'li	
Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari.....	274
Sobirov Otabeck Olimjonovich	



Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari	277
Kultayev Farxod Shavkatovich	
Tijorat banklari foydasi va rentabilitik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish	281
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlar sifatini oshirish yo'llari	284
To'ychiyev Otabek Shamshihevich	
Vençur kapitalining mohiyati va O'zbekistonda vençur tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari.....	288
Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna	
Innovatsiyalar: zamonaviy iqtisodiyot uchun innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash zarurati.....	293
Malikova Dilrabo Muminovna, Tursunov Jahongir Ulug'bek o'g'li	
Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta'sirini ko'p omilli ekonometrik modellashtirishda tahlil qilish.....	297
Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llari.....	302
Abdullahayev Boburjon Akbaralievich	
Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni	306
Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish	310
Mirzayeva Nargiza Batirovna	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	314
O. U. Shomurodov, A. A. Suyarov, Z. U. Uroqov, J. S. Urazov, A. T. Ablahatov	
Ways to Use the Experience of Foreign Countries in Creating a Beneficial Business Environment for Entrepreneurship And Improving Taxation	319
Mukhlisa Ikramova	
Aholi turmush darajasini oshirishda moliyaviy savodxonlikning o'rni va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri	325
Yusupov Muhammadali Sohib o'g'li, J.D. Xojiyev	
Temir yo'l sanoat korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo'yicha xorijiy tajriba.....	329
Kadirova Sharofat Amonovna	
Механизм внедрения аутсорсинговой деятельности в АО "Ўзтемирийўлайўловчи"	332
H. З. Кахарова	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi	337
Sharipov Bobur Anvar o'g'li	
"STEKLOPLASTIK" MJCHning bozordagi strategik holatini tahlil qilish	342
Musyeva Shoiria Azimovna	
Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari.....	348
M. Sh. Nazarova, Z. S. Kazakova	
Methodological Foundations of Bank Lending and Classification of Factors Affecting the Features of Obtaining Loans.....	353
Raxmanova Laylo bahodirovna, A. Karimova	
Agrosanoat klasterlarda tovar-moddiy zaxiralar samaradorligiini KPI orqali baholash uslubiyati	357
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Fao tadbirkorlar faoliyatida kambag'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari	362
Salamov Ibrohim, Nazarova Maryam Sharifovna, Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich, Kudratov Rizo Turdibayevich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Xudayberdiyeva Ma'rifikat Umarovna	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o'ziga xos xususiyatlari	369
Tursunova Shaxnoza Farxod qizi	
Процессы цифровизации АО "Худугазта'minot"	373
Хусанов Каҳрамон Нишонович	
O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish yo'llari.....	378
Abdullahayeva Madina Kamilovna, Eldorbekov G'ofurbek Iskandarbek o'g'li	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi	381
Bobayev Isroijon Abdinabiyevich	
Mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapitalning tovarlar va xizmatlar importi salohiyatiga ta'sirini ekonometrik modellar bilan baholash.....	386
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li	



O'zbekistonda bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	394
Sh. Madraimov	
Kapital bozorida sug'urta kompaniyalar institutsional investor sifatida	397
Xasanova Lola Mamasharifovna	
Yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari	400
B. B. Berkinov	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish mexanizmlari.....	409
G'afurov Umidjon Bahodir o'g'li	
Rivojlangan mamlakatlarda keksa fuqarolarning bandligini oshirish kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash usuli sifatida (Yaponiya tajribasi misolida).....	413
Karimov Bekzodjon Ilhomovich	
Tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish mexanizmlari	420
Pardayev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li	
Финансы или корпоративные финансы	426
Уринов Бобур Насиллоевич	
In Ensuring Economic Development in the Country Green Economy and its Features	432
Akhunova Shakhistikhon Nomonjanovna, Abdusattorova Mokhirabonu Abdugovpor kizi	
Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	437
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	
Сокращение уровня бедности в Узбекистане.....	443
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
Paxtachilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari va uning foydaga ta'sirini baholash	448
S. B. Inoyatov	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishslash amaliyotidagi muammolar va ularni barataraf etish yo'llari	453
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
Mahalliy budjet daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari	460
Ollokulova Feruza Mansurovna	
Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili	463
Usmanov Baxodir Baxtiyorovich	
Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyatি	469
Xalmuxamedova Zeboxon Babaxanova	
Tijorat banklari o'rtaqidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlash istiqbollari	473
M. Yuldasheva	
Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari	480
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili	487
Mirzayev Mirza Abdullayevich	
Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini instituttsional tahlil qilish mexanizmi	492
Saydullayeva Saodat Abdumajidovna	
Integrasiya sharoitida to'qimachilik sanoatining rivojlanishi	499
Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna	
Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish	503
Karamatova Noiba Husnitdinovna	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari	510
Mamatov Mamajan Axmadjonovich	
Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ.....	517
Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммадович	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo'llari	522
Sultanov Baxram Begdullayevich	



Роль искусственного интеллекта в современных технологиях медиаобразования в высших учебных заведениях.....	526
Самигова Гуландом Абдулжаббаровна	
Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta'lrim sifatiga ta'siri	534
Mirzayeva Muhlisa Ubaydullo qizi	
Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin	539
Muminov Akmal Tulkunovich	
Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta'lim tizimining ta'siri	543
Nasimov Adiz Azamat o'g'li, Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich	
Respublikada fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va agroizmatlar bozorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari	548
Shukurov Ilxom Safarboyevich	
Turli mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish yo'llari	555
Umarova Moxigul Maxmayunus qizi	
Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi	560
Yuldashev G'iyos Turabekovich	
Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari	564
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish	570
Boltayev Abror Sayitmuradovich	
Секреты интересного урока в начальной школе.....	577
Гараева Олеся Владимировна	
Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o'rni.....	580
Ibragimova Gulchehra Toxirovna	
Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi.....	584
Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish vositasi sifatida.....	591
Nabiiev Feruz Nurmurodovich	



XIZMAT SAFARI XARAJATLARI HISOBINING HUQUQIY ASOSLARI

Ergashev Sarvar Xudoynazarovich

PhD, BMA mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmat safari xarajatlari hisobi, uning o'ziga xos xususiyatlari, xizmat safariga oid normalar va xizmat safari bilan bog'liq transport xarajatlari tahlil qilingan. Xizmat safari bilan bog'liq xarajatlar hisobiga doir xulosalar, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xizmat safari, xarajatlari, normalar, transport, turar joy, budget, avans hisoboti.

Abstract: This article analyzes business travel expense accounting, its specific features, business travel norms, and business travel-related transportation costs.

Conclusions, scientific proposals and practical recommendations on the costing of business trips have been developed.

Key words: business trip, expenses, norms, transport, accommodation, budget, advance report.

Аннотация: В статье анализируются учет командировочных расходов, его особенности, нормы командировочных расходов и транспортные расходы, связанные с командировками.

Разработаны выводы, научные предложения и практические рекомендации по вопросам расчета стоимости командировок.

Ключевые слова: командировка, расходы, нормы, транспорт, проживание, бюджет, авансовый отчет.

KIRISH

Xodimlar bilan hisoblashishlar hisobining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ham bevosita xodimlarning tajribasi, mahorati, ishga bo'lgan munosabati va boshqa shaxsiy xislatlari borligi bilan ham belgilanadi. Shu bilan birga ular tomonidan ish bilan bog'liq qandaydir qo'shimcha topshiriqlarni bajarishi hamda mana shu topshiriqlarni bajarish jarayoni, odatda, xizmat safari, unda qilinadigan xarajatlar xizmat safari xarajatlari hisoblanadi.

Xizmat safariga subyektning topshirig'iga ko'ra borish, xizmat safari davrida ishlarni bajarish xodimga qo'shimcha majburiyat yuklashi bilan birga unga to'lanadigan to'lovlar borasida ham korxona oldida moddiy va ma'nnaviy majburiyat yuklaydi. Shu bois xizmat safari bilan bog'liq munosabatlarda xodimga to'lanadigan to'lovlar miqdori asosli bo'lishi hamda o'z vaqtida to'lab berilishi maqsadga muvofiq.

Xizmat safari bilan bog'liq munosabatlar, ayniqsa, xizmat safari xarajatlarining normativ me'yori, subyektlar uchun uni xarajat sifatida tan olish yoki xodim uchun daromad sifatida qaralishi masalasi munozarali bo'lib, odatda, bu munozara huquqiy hujjatlardagi aniq yechimning mavjud emasligidan kelib chiqadi. Shuning uchun xizmat safari davrida qoplanadigan xarajatlar va ularning tarkibi hamda miqdorining me'yori huquqiy hujjatlarda aniq mustahkamlab qo'yilishi kerakki, soliq organlarini ham, xo'jalik yurituvchi subyektlarni ham, xizmat safariga yuborilgan xodimni ham manfaatiga zid bo'limasligi lozim.

Xizmat safari davrida xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan qoplanadigan xarajatlar tarkibi va uning me'yoriy hujjatlari olimlarning tadqiqotlarida keltirib o'tilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jumladan, V.V. Kipetskaya xodimni xizmat safariga jo'natishda unga xizmat safari bilan bog'liq turar joyini ijara ga olish, kundalik xarajatlar, ish beruvchining ruxsati bilan xodim tomonidan amalga oshirilgan boshqa xarajatlarning qoplanishi kafolatlanishi kerakligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga xizmat safarlari bilan bog'liq xara-



jatlarni qoplash tartibi va miqdori jamoa shartnomasi yoki tashkilotning ichki normativ hujjatlari bilan belgila-nishini keltirib o'tadi¹.

Ushbu manbadan ko'rishimiz mumkinki, xizmat safarlar davridagi ayrim xarajatlar tarkibi keltirilgan holda, xarajatlarni qoplash tartibi va miqdori tashkilot tomonidan mustaqil belgilanishi mumkinligi aytilgan. Demak, ushbu muallif fikricha, uning miqdori har bir tashkilot tomonidan mustaqil belgilanadi. Biroq masalaning boshqa tomoni, ya'ni ushbu xarajatlarning miqdoriga qandaydir soliq solish maqsadida yoki buxgalteriya hisobida xarajat sifatida tan olish maqsadida yondashish muallif ishlanmasida e'tibordan chetda qoldirilgan.

Boshqa bir manbada T. S. Maslova xodim xizmat safarida bo'lgan davr uchun, shuningdek, yo'lda bo'lgan kunlar uchun, shu jumladan majburiy to'xtash paytidagi o'ttacha ish haqi yuboruvchi tashkilot tomonidan belgilangan tartibda barcha ish kunlari uchun saqlanadi. Xizmat safariga yuborilgan xodimga turar-joy binolarini ijara olish xarajatlari, xizmat safari joyiga va qaytishga qo'shimcha yo'l xarajatlari, kundalik va boshqa xarajatlар (masalan, ish beruvchining ruxsati bilan amalga oshirilgan aloqa xizmatlari yoki pochta uchun to'lovlar) kiritilishi ta'kidlab o'tilgan².

Mazkur manbadan ham ko'rindiki, bunda yuqorida mualliflikidan boshqa qo'shimcha xarajatlар ham to'lanishi mumkinligi e'tirof etilib, xizmat safari davomida o'ttacha ish haqi saqlanishi esga olingan. Ammo, bunda ham qoplanishi kafolatlangan xarajatlarning miqdori, to'lash manbayi va soliqqa tortish masalasi ochiq qolgan.

G.I.Alekseyeva o'zining maqolasida Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksiga tayangan holda xizmat safariga yuborishda ish joyini (lavozimini) saqlab qolish, o'ttacha ish haqini saqlash, xizmat safari bilan bog'liq xarajatlarni qoplash kabilarni kafolatlanadigan xarajatlarga kiritadi. Ish beruvchining ish joyiga qo'yilgan xodimga qoplaydigan ko'pgina xarajatlari uning daromadi sifatida qaralmasligi xususida to'xtalib o'tadi. Ya'ni muallif, kundalik xarajatlari, haqiqiy va hujjatlashtirilgan xarajatlarni daromad sifatida ko'rilmasligiga ishora qiladi³.

Muallif xizmat safari bilan bog'liq manzilga borish va qaytib kelish uchun, aeroport yoki vokzalga jo'nash, boradigan va o'tkazish joylarida sayohat qilish uchun, bagajni tashish uchun, aeroport xizmatlari uchun to'lovlar, turar joyni ijara olish uchun, aloqa xizmatlari uchun haq to'lash, xizmat chet el pasportini bergenlik va ro'y-xatdan o'tkazganlik uchun yig'imlar, vizalar bergenlik (qabul qilganlik) uchun yig'imlarni to'lash, naqd pul yoki bank chekini naqd xorijiy valyutaga almashtirish kabi xarajatlars borligini ham keltirib o'tadi.

G.I.Alekseyevaning ishidan ko'rindib turibdiki, yuqorida gilardan bir mucha kengroq xarajatlар tarkibi keltirilgan va fikrimizcha, aslida ham xarajatlар mana shunday keng va yetarli bo'lishi kerak. Shu bilan birga muallif, bagajni tashish, borgan joydagi sayohat qilish bilan bog'liq xarajatlarni ta'kidlab o'tgani munosabat bildirishga asos bo'ladigan masaladir.

L.I. Soldatova o'zining ishida biznes va sayohat uchun xizmat safari deya ikki toifaga ajratganday munosabat bildiradi. Xodim rasmiy topshiriq asosida xizmat safarida bo'lganida topshiriqni bajarganligi to'g'risida hisobot to'diradi va ish beruvchi tashkilot manfaatlarini ko'zlab xizmat safarining ishlab chiqarish zarurligini asoslaydi. Muassasalarda moliyaviy yil boshlanishidan oldin xizmat safarları bilan bog'liq barcha xarajatlар summaları tasdiqlanishi zarurat tug'ilganda esa xarajatlар yil davomida qayta ko'rib chiqilishi kerak. Maqolada hisobdor shaxslar tomonidan moddiy boyliklarni sotib olishni hisobga olish algoritmi, sayohat va biznes xarajatlariiga sarflangan summalarini hisobdan chiqarish tartibi keltirilgan⁴.

Ushbu muallifning ishida xizmat safari guvohnomalarini bekor qilish lozimligi xususida ham fikrlar mavjud. Fikrimizcha, ushbu fikrlarni o'rganib, amaliyotdagi natijasini tahlil qilib xulosa qilish maqsadga muvofiq.

Yuqorida gilardan ko'rishimiz mumkinki, xizmat safari bilan bog'liq xarajatlarning me'yori, miqdori mustaqil belgilanishi yoki me'yoriy hujjatlarda aniq normasi belgilanishi xususida yagona to'xtam aytilmagan. Shu bois, bizning fikrimizcha, dastlab masalani huquqiy tomonini o'rganish va shu asosda takliflar berish lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida xizmat safari tushunchasiga qonunchilik ta'rifi berilgan. Unga ko'ra, xizmat safari – tashkilot rahbarining buyrug'iiga (qarori, farmoyishiga) asosan xodimning o'zining doimiy ish joyidan boshqa joyga xizmat topshirig'ini bajarish uchun ma'lum bir muddatga yuborilishidir⁵. Ta'rifdan ko'rishimiz mumkinki, xodim doimiy ish joyidan yuborilishi keltirilgan. Biroq amaliyotdan ma'lumki, boshqa tashkilot so'roviga

- 1 Кипецкая В.В. Бухгалтерский учет командировочных расходов. Международный научный журнал "ВЕСТНИК НАУКИ" № 9 (18) Т.4. Сентябрь 2019 г
- 2 Т. С. Маслова. Бухгалтерский учет командировочных расходов в казенных и бюджетных учреждениях. Бухгалтерский учет в бюджетных и некоммерческих организациях. 14 (302) – 2012.
- 3 Г. И. Алексеева. Служебная командировка: бухгалтерский учет гарантий, предусмотренных трудовым законодательством. Все для бухгалтера. 2 (282) – 2015
- 4 Солдатова Л.И. Совершенствование документооборота при оформлении командировки. Интернет-журнал "НАУКОВЕДЕНИЕ" <http://naukovedenie.ru> Выпуск 6 (25), ноябрь – декабрь 2014 publishing@naukovedenie.ru
- 5 O'zbekiston Respubliksi Vazirlar Mahkamasining 02.08.2022-yildagi 424-sun qarori.



ko'ra, davlat va jamiyat ishlariga jalb qilish, ekspert, komissiyada ishtirok etish, delegatsiya bilan yuborilishi mumkin. Bunday hollarda xodimning xizmat safariga yuborish yuqori turuvchi yoki hamkor tashkilotning so'roviga ko'ra amalga oshiriladi va xizmat safariga yuborish haqida buyruq (farmoyish) rasmiyashtiriladi.

Mazkur buyruqda xodimning xizmat safarida bo'lish muddati va xizmat safari davomidagi xarajatlarni yuqori turuvchi tashkilot, hamkor tashkilot yoki asosiy ish joyidan to'lanishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltiriladi. Aytaylik, xizmat safari xarajatlari hamkor tashkilot tomonidan qoplanganda ham, bu asosiy ish joyining xizmat topshirig'i emasku. Ya'ni, ta'rifda aynan xizmat topshirig'inи bajarish uchun yuborilishi keltirilgan. Bu aynan ayrim tashkilotlar uchun me'yoriy-huquqiy asos bo'lganligi bois xizmat safari tushunchasiga berilgan qonunchilik ta'rifi mazmunan to'g'ri va to'liq bo'lishi kerak.

Shu bilan birga O'zbekistonda xizmat safarlarini tashkil etish bo'yicha yagona me'yoriy hujjatda tashkilot devilganda budget tashkilotlari, davlat maqsadli jamg'armalari, budget tizimi budgetlaridan mablag' ajratiladigan belgilangan tartibda tashkil etilgan boshqa jamg'armalar, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslardan tashqari boshqa jamg'armalar, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslardan tashqari boshqa barcha tashkilotlar va tadbirkorlik subyektlariga nisbatan tavsiyaviy xususiyatga ega degan jumlani o'qish kifoya.

Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, aslida mamlakatimizda yuqorida olimlarning ishida ta'kidlanganidek, boshqa subyektlar o'zlarini xarajat normalari va boshqa xizmat safari bilan bog'liq me'yorlarni o'rnatish huquqiga ega.

Ushbu normadan kelib chiqadiki, ushbu tartibda keltirilgan xizmat safariga oid normalar xususiy korxonalar, umuman olganda yuqoridagi tarkibga kirmaydigan subyektlar uchun qo'llanilmaydi yoki qo'llash ixtiyor. Buni yanada aniqlashtirish uchun Nizomda aniq qilib, Nizom qoidalari budget tashkilotlari, davlat maqsadli jamg'armalar, budget tizimi budgetlaridan mablag' ajratiladigan belgilangan tartibda tashkil etilgan boshqa jamg'armalar, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslardan tashqari boshqa barcha tashkilotlar va tadbirkorlik subyektlariga nisbatan tavsiyaviy xususiyatga ega degan jumlani o'qish kifoya.

Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, aslida mamlakatimizda yuqorida olimlarning ishida ta'kidlanganidek, boshqa subyektlar o'zlarini xarajat normalari va boshqa xizmat safari bilan bog'liq me'yorlarni o'rnatish huquqiga ega.

Barcha subyektlar uchun tegishli bo'lmasa-da, tavsiya uchun foydalanish va aynan ushbu Nizom qoidalari qo'llaniladigan subyektlar uchun ham ayrim masalalarni yoritish uchun Nizomdag'i me'yorlarni o'rganib, chiqish maqsadga muvofiq. Ushbu me'yoriy hujjatda yuqorida keltirilgan tashkilotlar uchun xizmat safari xarajatlari va ularni tavsiyaviy me'yoriy belgilangan bo'lib, unga ko'ra ayrim turdag'i xarajatlar va ularning normalari keltirilgan.

Jumladan, xizmat safarida bo'lgan vaqt uchun to'lanadigan kundalik xarajatlarga xizmat safarida bo'lgan vaqtida kunlik ovqatlanish, xizmat safari paytidagi vazifalarni bajarish bilan bog'liq boshqa kundalik xarajatlar (transport vositalari va turar joy bilan bog'liq xarajatlar bundan mustasno) kiradi.

Nizomda belgilanishicha, xizmat safariga yuborilgan xodimga turar joy bilan bog'liq xarajatlar (mehmonxona yoki turar joy ijaras), xizmat safari joyiga borish, shu jumladan, xizmat safari doirasida shaharlararo va tumanlararo harakatlanish hamda doimiy ish joyiga qaytish uchun yo'l xarajatlari qoplanadi, shuningdek, kundalik xarajatlar uchun haq to'lanadi.

- umumi foydalaniladigan transportning barcha turlarida yurish (taksidan tashqari) qiymati;
- umumi foydalaniladigan transportning xizmat safariga yuborilgan shaxsga tegishli tasdiqlovchi hujjatlari asosida.

Mazkur normadan ko'rinib turibdiki, transport va turar joy bilan bog'liq xarajatlar kundalik xarajatlarga kiritmaydi. Biroq amaliyotda hujjat bilan tasdiqlash imkon bo'lmaydigan, viloyatlar xizmat safarida tumanlar va hududlarga borib kelish bilan bog'liq transport xarajati mavjud. Ushbu turdag'i xarajatlarni hujjat bilan tasdiqlab bo'lmaganligi, hududlararo jamoat transporti yo'qligi bois taksidan yoki shaxsiy avtomobillardan foydalaniladi.

Bundan tashqari, transportda yo'lovchilarni majburiy davlat sug'urtlash bo'yicha to'lovlari, tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda yo'lda yurish hujjatlarini oldindan sotish, samolyot va poyezdlarda joylarni bronlash xizmatlari bo'yicha to'lovlari, tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganda, tashkilot rahbarining ruxsati bilan havo, temir yo'l, SUV va umumi foydalanishdagi avtomobil transportida bagajni olib o'tish bilan bog'liq xarajatlar, umumi foydalanishdagi transport bilan (taksidan tashqari) stansiyagacha, aeroportgacha yetib olish xarajatlari, agar ular aholi yashaydigan hududdan tashqarida joylashgan bo'lsa. Bunda kechki vaqtida yoki umumi foydalanishdagi transport mavjud bo'lmagan taqdirda tashkilot rahbariga xodimlar uchun yengil avtotransport vositalarida tashish faoliyati litsenziya varaqsiga ega taksida yurgenlik uchun haq to'lash huquqi beriladi.

Ushbu talablardan munozarali bo'lganlari kechki vaqtida yoki umumi foydalanishdagi transport mavjud bo'lmagan taqdirda tashkilot rahbariga xodimlar uchun yengil avtotransport vositalarida tashish faoliyati litsenziya varaqsiga ega taksida yurgenlik uchun haq to'lash huquqi berilishi va tashkilot rahbarining ruxsati bilan havo, temir yo'l, SUV va umumi foydalanishdagi avtomobil transportida bagajni olib o'tish bilan bog'liq xarajatlardir.

6 O'zbekiston Respublikasi hududida xizmat safarlarini to'g'risidagi NIZOM. <https://lex.uz/ru/docs/6139423>



Ya'ni, birinchidan, litsenziyasi bor taksiga yurganda ham qancha to'lov qilinganligi, masofasi va aynan xizmat safari bilan bog'liq jarayonda yurbanligini isbotlovchi hujjatni olish amrimahol. Shu bois, mazkur normani ham alohida hisobga olish hamda xodimga qulayroq bo'lgan boshqa normadan foydalanish imkoniyati berilishi lozim.

Ikkinci munozarali masala, tashkilot rahbarining ruxsati bilan havo, temir yo'l, suv va umumiyl foydalanish-dagi avtomobil transportida bagajni olib o'tish bilan bog'liq xarajatlarni qoplanishi, rahbarga bog'lab qo'yilib, qaysi hollarda va kimga bunday xarajatlarga rahbar ruxsat berishi mumkin degan haqli savolni keltirib chiqaradi.

Munozaraning davomi esa, yo'lida ko'rpa-to'shak buyumlaridan foydalanganlik uchun xarajatlarning tasdiqlovchi hujjatlarsiz haq to'lashga qabul qilinishidir. Bu xarajatlarning miqdori biror joyda belgilanmagan. Aytaylik mehnatnomalari mavjud bo'limganda bazaviy hisoblash miqdorining 20 foizi (bugungi kunda 68 ming so'm) belgilangan bo'lsa, yo'lida ko'rpa-to'shak uchun bundan ko'p xarajat qilingan bo'lsa ham qabul qilinishi va to'lab berilishi kerak bo'ladi.

Fikrimizcha, mazkur xarajat bo'yicha ham jamoa shartnomasida yoki boshqa ichki hujjatlarda maksimal me'yorni, qanday holatlardagi xizmat safarlarida bu xarajatlarni qabul qilinishi belgilab qo'yish lozim.

Yo'l hujjatlari mavjud bo'limganda budget tashkilotlari xodimlari uchun xizmat safari yo'lkirasiga haq to'lash har bir kilometrga bazaviy hisoblash miqdorining 0,1 foizi miqdorida, boshqa tashkilotlarni xodimlari uchun jamoa kelishuvi (shartnomalari), mehnat shartnomasida ko'zda tutilgan, biroq har bir kilometrga bazaviy hisoblash miqdorining 0,1 foizidan kam bo'limgan miqdorlarda qoplab berilishi keltirib o'tilgan.

Demak, mazkur bandda budget tashkiloti va boshqa tashkilotlar ajratib ko'rsatilgan, biroq unda ham aynan yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, tadbirkorlik subyektlari uchun taalluqli emas.

Transport xarajatlarini tasdiqlovchi hujjatlari mavjud bo'limganda, Internet jahon axborot tarmog'idagi elektron xaritalardan foydalangan holda masofalarini aniqlashga ruxsat etiladi.

Shu bilan birga yuqorida hujjatda xizmat safarida bo'lgan xodimga u yuborilgan tashkilotdagi ish vaqtini va dam olish vaqtini taalluqli bo'lishi, xizmat safari vaqtida foydalanimagan dam olish kunlari xizmat safaridan qaytganda tiklanmasligi belgilab qo'yilgan.

Bizning fikrimizcha, mazkur holat ham munozarali bo'lib, xizmat safari yashab turgan joyidan uzoqda bo'lganligi bois, dam olish xodimning ixtiyorida bo'lmaydi. U odatdag'i dam olishini o'tkaza olmaydi. Jumladan, oilaviy qisqa muddatli sayohatga chiqish, uyd'a oilaviy ovqatlanish yoki boshqa turli oilaviy, do'stlar bilan bo'ladigan tadbirdorda qatnashish, bemor qarindoshlarini ko'rishga borish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 201-moddasiga ko'ra, dam olish vaqtini xodim mehnat majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'lgan va o'z ixtiyoriga ko'ra foydalaniши mumkin bo'lgan vaqtidir deya e'tirof etilgan. Demakki, o'z hududidan tashqarida xizmat safarida bo'lgan xodim uchun dam olish vaqtidan o'z ixtiyoriga ko'ra foydalana olmaydi. O'z-o'zidan uning ixtiyori cheklanib, xizmat safariga borgan hududida bor sharoitda dam olishga majbur.

Faqatgina tartibga ko'ra, agar xodim xizmat safari davomida dam olish yoki bayram kunlarida xizmat safariga yuborilgan joyda ishlagan bo'lsa, ushbu kunlarda ishlagani uchun amaldagi qonunchilik hujjatlariiga muvofiq kompensatsiya to'lanadi.

Kundalik xarajatlar uchun haq jamoa shartnomalari, jamoa kelishuvlari va mehnat shartnomalarida ko'zda tutilgan miqdorlarda, lekin quyidagi miqdorlardan kam bo'limgan holda belgilanadi (bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan koeffitsiyentlarda), jami 0,35 gacha:

- xodimning xizmat safari davrida ovqatlanish (alkogol va tamaki mahsulotlari bundan mustasno) xarajatlari tasdiqlovchi hujjatlari (cheklar) taqdim etilganda – 0,25 gacha;
- boshqa xarajatlari uchun – 0,1.

Bunda umumiy ovqatlanish obyektlarida xaridni amalga oshirganligini tasdiqlovchi hujjatlarni (cheklarni) xizmat safari uchun ishlab chiqilgan maxsus mobil ilovada xarid chekining fiskal belgisini matritsali shtrix kod (QR-kod) yordamida skannerlash orqali ro'yxatdan o'tkazish imkoniyati mavjud bo'limganda, ushbu hujjatlarni (cheklarni) taqdim etishga ruxsat etiladi.

Umumiy ovqatlanish obyektlarida xarid amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlari (cheklar) xizmat safari davrining har bir kuni uchun alohida-alohida rasmiylashtiriladi.

Turar joyda yashaganligi bo'yicha xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlari mavjud bo'limgan hollarda har bir sutka uchun belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining 20 foizi miqdorida qoplanadi.

Xodim xizmat safaridan qaytgan kundan e'tiboran uch ish kuni mobaynida avans hisobotini taqdim qilishi shart. Ushbu hisobotga belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan xizmat safari guvohnomasi va xizmat safarida haqiqatda qilingan xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlari ilova qilinadi.

Endi aynan soliq qonunchiligidagi bu masalada qanday holatlarni borligini ko'rib chiqamiz.



1. O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksiga ko'ra, xizmat safarlariga oid quyidagi kompensatsiya to'lovlari jismoniy shaxslarning jami daromadiga kiritilmaydi va jismoniy shaxslarning daromad solig'iga tortilmaydi:
 - tasdiqlovchi hujjatlar asosida xizmat safari joyiga borish va u yerdan qaytib kelish uchun, shu jumladan joy band qilish uchun haq to'lashni qo'shgan holda haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlar. Yo'l hujjatlari bo'limgan taqdirda, temir yo'l transportidagi (agar temir yo'l qatnovi bo'lmasa, shaharlararo avtobusdagi) yo'l haqi qiymati miqdorida, lekin aviachipta qiymatining 30 foizidan oshmaydigan miqdorda;
 - uy-joyni ijara olish bo'yicha haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlar. Yashaganligini tasdiqlovchi hujjatlar bo'limgan taqdirda qonunchilikda belgilangan normalar doirasida;
 - qonunchilikda belgilangan normalar doirasida xizmat safarida bo'lingan vaqt uchun to'lanadigan kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar).

Biz tomonimizdan yuqorida mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlari uchun tavsiyaviy xususiyatga ega xizmat safari xarajatlarini qoplashga oid yagona me'yoriy hujjatning munozarali joylarini keltirib o'tdik.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda xizmat safari bilan bog'liq xarajatlar tarkibi jamoa shartnomasida va uning me'yori hisob siyosatida belgilab qo'yilishi hamda bu hisob yuritish, xarajatlarni tan olish hamda soliq solish maqsadida ham inobatga olinishi lozim.
2. Xizmat safari xarajatlari tarkibiga: kundalik, mehmonxona, transport xarajatlari bilan birga, doimiy yashash joyida uzoq muddat bo'limganligi uchun to'lov (bir oydan uzoq muddat), dam olish kunlari va bayram kunlari uchun qo'shimcha kompensatsiya to'lovlari, boshqa maishiy-iijtimoiy xizmatlar uchun to'lovlarni kiritish maqsadga muvofiq.
3. Qonunchilik normasidan ko'rishimiz mumkinki, xizmat safari xarajatlarining tarkibi va uni qoplash hamda hisobdan aks ettirish uchun yagona asos mavjud emas. Shu bois, bizning fikrimizcha, xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun xizmat safari xarajatlarining tarkibi, uni qoplash hamda hisobdan aks ettirish bo'yicha tavsiyaviy tartib ishlab chiqish maqsadga muvofiq.
4. O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksiga ko'ra, uy-joyni ijara olish bo'yicha haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlari jismoniy shaxslarning jami daromadiga kiritilmaydi va jismoniy shaxslar daromad solig'iga tortilmaydi. Yashaganligini tasdiqlovchi hujjatlar bo'limgan taqdirda qonunchilikda belgilangan normalar doirasida soliqqa tortilmasligi keltirib o'tilgan. Ammo mana shu norma belgilangan qonunchilik xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun mavjud emas. Yuqorida biz tomonimizdan o'rganilgan tartiblar esa xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun tavsiyaviy ahamiyatga ega.
5. Xizmat safariga borgan xodim dam olish kunlari uchun o'rtacha bir kunlik ish haqi to'lash, agar dam olish kunlari ishlasa ikki barobardan kam bo'limgan haq to'lash va xizmat safaridan qaytgandan so'ng qo'shimcha dam olish kuni berish lozim. Shu bilan birga bayram kunlari xizmat safarida bo'lgan xodimga uyidan uzoqda, oilasi va yaqinlari bilan birga bayram nishonlamaganligini inobatga olib, dam olish kuni singari haq to'lash, shu bilan birga yana bir kunlik qo'shimcha ish haqi miqdorida ma'naviy kompensatsiya haqi to'lash maqsadga muvofiq.

Yashi

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

